

JIZZAX VILOYATI. ZOMIN TUMANINING NOZOEKOLOGIK SHAROITI VA UNING AHOLI SALOMATLIGIGA TA'SIRI

Ahmadqulov Saidjon Rauf o'g'li


*Guliston davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar va san'atshunoslik"
kafedrasi o'qituvchisi saidjonahmadqulov5@gmail.com*

Annotatsiya: *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev ta'kidlaganidek, mamlakatimizda turizmni rivojlantirish mahalliy sayyohlar soni oshirish va aholi salomatligini mustahkamlash, atrof muhit muxofazasini ta'minlash uchun iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish jarayonlarini chuqurlashtirish siyosatini davom ettirish lozim. Bu bo'yicha tub islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan 2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 35-maqsadida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish.*

Kalit so'zlar: *landshaft, nozoiqlimiy omillar, topologik, tabiiy sharoit, dasht, sil kasalligi, inson salomatligi.*


Mustaqillik yillarida viloyatda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tizimida ancha ijobiy o'zgarishlar bo'ldi. Dastlabki yillarda viloyat sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan ishlar tartibi sobiq Ittifoq davridagidek amalga oshirildi. Keyinchalik, 90-yillar o'rtalaridan tibbiy xizmatni yangicha tashkil etish borasidagi islohotlar amalga oshirila boshladi. Jumladan, sohaning ayrim xizmat ko'rsatish turlariga xususiylashtirish kirib keldi, dorixona xizmati deyarlik davlat tasarrufidan chiqarilib, xususiy sektorga o'tkazildi, dastlab yirik shaharlarda, keyinchalik tuman markazlarida xususiy klinikalar tashkil etila boshlandi.

Jizzax viloyati hududlarida shifoxona muassasalarining ulushi 2016-2020 yillarda viloyatdagi shifoxonalarni soni o'sishini tahlil qiladigan bo'lsak, asosiy potensial Jizzax shahriga to'g'ri keladi. Keyingi o'rinlarda Sharof Rashidov tumani mos ravishda ikkinchi o'rinni egallagan bo'lib, 10ta shifoxonadan 6taga tushganini ko'rishimiz mumkin. Forish, Zafarobod, Zarbdor, Do'stlik, Arnasoy tumanlarida 1tadan ko'p tarmoqli poliklinikalar bor.



1-rasm. Jizzax viloyati va Zomin tumanida faoliyat yuritayotgan shifoxonalar.


Viloyat bo'yicha 2020 yilda doimiy shifo o'rinlarida 140757 nafar bemor davolandi. (2019 yilda 40350 ta). O'rin bandligi viloyat ko'rsatkichi 210,1 (2015 yilda 198,5)ga teng bo'lgan xolda, Jizzax shaxrida 101,2, Zomin tumanida 68,1, Do'stlik tumanida 18,9 va Yangiobod tumanida 29ni tashkil qildi. Bemorlarni o'rinda o'rtacha bo'lishi viloyat ko'rsatkichi 7,0ga (2019 yilda 6,0) teng bo'ldi. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori viloyat muassasalarida 8,4, Jizzax shaxrida 7,5, Baxmal tumanida 7,2 va Dashtobod tumanida 7,1ni tashkil qildi. O'rinlar almashinuvi viloyat ko'rsatkichi 35,3ga (2019-yilda 31,5) teng bo'ldi. Viloyat ko'rsatkichidan past viloyat muassasalarida 27,8, Arnasoy tumanida 25,4, Jizzax shaxrida 40,1 va Zomin tumanida 32,1ni tashkil qildi. O'rin-kunlar rejasi bajarilishi viloyat ko'rsatkichi 86,7%ga (2019-yilda 81,1%) teng bo'ldi. Viloyat ko'rsatkichidan past Forish tumanida 68,1%, Paxtakor tumanida 74,1%, Mirzacho'l tumanida 65,2% ni tashkil qildi.



2-rasm. Jizzax viloyati va Zomin tumanida faoliyat yuritayotgan vrachlar.


Sil kasalligi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, dunyo miqyosida o'lim va nogironlikka olib keluvchi sabablardan biri bo'lib qolmoqda.

Viloyatda silga qarshi kurash ishlari O'zbekiston Respublikasi Sog'likni saqlash vazirligining 1993-yilgi 591-sonli, 1995-yilgi 552-sonli buyruqlari va DOTS dasturi asosida olib borilmoqda.



3-rasm. Jizzax viloyati va Zomin tumanida faoliyat yuritayotgan tibbiyot xodimlari.

Viloyatda sil kasalliklarini statsionar sharoitida davolovchi 3 ta muassasa va 1 ta bo'lim bo'lib, faol sil kasalliklarini davolash uchun 400 ta shifo o'rinlari mavjud. Sil kasalligi bilan ro'yxatga olingan bemorlar 989 nafarni tashkil qilib, kasallanish xar 100 ming axoliga 53,2 ni (2019-yilda 1217 bemor, kasallanish ko'rsatkichi 49,4) tashkil qildi. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Zomin tumanida 52,7, Do'stlik tumanida 52,4, va Jizzax shaxrida 49,9 ni tashkil qildi.



4-rasm. Jizzax viloyati va Zomin tumanida faoliyat yuritayotgan ambulator poliklinikalar.

Viloyat axolisiga teri-tanosil kasalliklari hizmati O'zbekiston Respublikasi Sog'likni Saqlash Vazirligining 1998-yil 20-sentyabrdagi 660-sonli buyrug'i asosida 90 o'rinli viloyat teri-tanosil kasalliklar dispanserida, 125 o'rinli markaziy tuman shifoxonalaridagi ixtisoslashtirilgan bo'limlarida hamda 10 ta shahar va tumanlardagi

teri-tanosil kasalliklari xonalarida viloyat sog'likni saqlash boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan reja asosida olib boriladi. 2018-yilda 186 ta zaxm kasalligi ro'yxatga olingan bo'lib, (o'tgan yilning shu davrida ham 186 ta), intensiv ko'rsatkichi 7,4 ni tashkil etdi. (2013-yilda 7,4). Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Jizzax shahrida 18,0, Zomin tumanida 10,0 va Dashtobod shahrida 8,0 ga teng bo'ldi. Ijtimoiy axamiyatga ega bo'lgan kasalliklardan o'sma kasalliklar bilan 1500 nafar bemor ro'yxatga olingan bo'lib, har 100 ming aholiga kasallanish 63,7 (2018- yilda 1622 nafar bemor ro'yxatga olingan kasallanish ko'rsatkichi 65,1). Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Baxmal tumanida 71,4, G'allaorol tumanida 74,5 ga teng bo'ldi. 2013-2018 yillarda ich terlama kasalliklari bilan 470 nafar bemor ro'yhatga olingan bo'lib, har 100000 aholiga kasallanishi ko'rsatkichi 0.39dan 0.1 foizgacha tushdi. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori , Jizzax shaxrida 14,8, Zomin tumanida 8,1ni tashkil qildi.

Aholi orasida uchraydigan kasallik guruhlaridan yana biri bu ovqat hazm qilish a'zolari kasalligi hisoblanadi. Respublika umumiy ko'rsatkichi har 100ming kishiga nisbatan 70 kishi bo'lsa, viloyat ko'rsatkichi ham deyarli farq qilmaydi. 2019-yilda viloyat bo'yicha ruhiy kasalliklar har 100 ming aholiga kasallanish ko'rsatkichi 15,0 ga teng bo'ldi. Viloyat ko'rsatkichi esa o'zgarishlar indeksida 3ga ,umumiy ko'rsatkichda esa 36-37ga teng. Endokrinologik kasalliklar bilan jami 24950 nafar bemor ro'yhatga olingan bo'lib, kasallanish har 100 ming aholiga 168,9 ni (2019-yilda 349 nafar bemor, kasallanish ko'rsatkichi 14,8) tashkil qildi. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Jizzax shaxrida 245,3, Dashtobod shahrida 172,3, Zomin tumanida 162,6 ni tashkil qildi. Shu jumladan qalqonsimon bez kasalliklari bilan kasallanish har 100 ming aholiga 71,4 ni (2019-yilda 74,6) tashkil qildi. Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Do'stlik tumanida 15,6, Forish tumanida 75,0, va Zafarobod tumanida 79,5ga teng bo'ldi. Qandli diabet kasalliklar bilan jami kasallanish har 100 ming aholiga 61,4ni (2010-yilda 59.6) tashkil qildi.

Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Jizzax shahrida 69.5, Dashtobod shahrida 57.9, Zomin tumanida 47.6 va Paxtakor tumanida 47,1 ni tashkil qildi. 2020-yilda viloyat bo'yicha yuqumli kasalliklardan virusli gepatit bilan 2730 nafar bemor kasallangan bo'lib, birlamchi kasallanish ko'rsatkichi 42.4 ga teng bo'ldi. (2018-yilda virusli gepatit bilan 2270 nafar bemor kasallangan bo'lib, intensiv kursatkich 50,6). Viloyat ko'rsatkichidan yuqori Jizzax shaxrida 76,7 va Baxmal tumanida 71,0 ni tashkil qildi. 2020- yilda viloyat bo'yicha qon aylanish a'zolari kasalliklari birlamchi kasallanish ko'rsatkichi har 10ming aholiga nisbatan Jizzax viloyatida 1991-2015 yillar kesimida o'zgarishlar indeksi 1.34 ni tashkil etgan. Umumiy aholi sonoga nisbatan esa 16.8 dan 22.4 ga oshganini ko'rishimiz mumkin. Viloyatning boshqa ma'muriy birliklari orasida kasalxona xizmati bilan ta'minlanishi darajasi bo'yicha Jizzax shaxri va Zomin tumanlari bo'lib, har 10000 ming aholiga to'g'ri keladigan bemor o'rinlari vrachlar soni 32,3 va 20,4 ni tashkil etadi.

Viloyat tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining mustaqillik yillarida rivojlanishida quyidagi ikkita asosiy yo'nalishni ajratish mumkin;

- xizmat ko'rsatish tizimi kasalxonalarini markazlashtirish;
- chekka hududlarda poliklinika muassasalar vazifalarining ma'lum qismini ularga tobe va qo'yi tizim shahobchalariga yuklash.
- Birinchi holatda quyidagilar kuzatiladi;
- hududlardagi kasalxonalarda foydalanish samaradorligi-ning pasayishi;
- ayrim muassalari faoliyat yuritayotgan hududlarda aholi sonining ortib ketishi hamda xavfsizlik choralarining kamayishi;
- malakali tibbiy xodimlarning chekka hududlarda yetishmasligi yoki markazda xususiy faoliyatni yo'lga qo'yilishi sababli kadrlarning viloyat, respublika markazlariga oqishi;
- ijtimoiy siyosiy sabablar va boshqa bir qator omillar natijasida tumanlardagi qator kasalxonalar tugatilib, viloyat markaziga ko'chirildi.

Ikkinchi holatda tumanlarda poliklinika muassasalari qoshidagi feldsher-akusherlik punktlari tugatilib, ularning o'rnida qishloq vrachlik punktlari tashkil etila boshladi. Ular ma'lum darajada oliy ma'lumotli xodimlar hamda tibbiy anjomlar bilan ta'minlandi. Ushbu hol vrachlik ambulatoriyalar hamda punktlar ahamiyatini oshirdi va qator bemorlarni kunduzgi davolanish imkoniyatini oshirdi. Shu sababli viloyatda kunduzgi davolash muassasalarining ahamiyati va ularda davolangan bemorlarning miqdori yildan-yilga ortib bordi. Tahlillar ko'rsatdiki, viloyatda kasalxonalar va ulardagi doimiy shifo o'rinlarining kamayishi poliklinika, vrachlik ambulatoriyalarida kunduzgi davolash miqyosining ortib borishiga zamin yasadi. Viloyatda 2000-2019 yillar oralig'ida kunduzgi davolash maskanlarida davolanganlar soni 6 marta oshdi.

Tibbiy infratuzilmadagi o'zgarishlar ma'lum ma'noda xususiy amaliyot shifoxonalari faoliyatining kengayib borishi bilan ham izohlanadi. Mustaqillik yillarida qator tibbiy xizmat ko'rsatish turlari, masalan, stomatologiya, oftalmologiya hamda ayrim tor mutaxassislik jabhalarida xususiy amaliyot keng yoyildi. Shu bilan birga ayrim noan'anaviy davolash turlarining kirib kelishi bevosita chet ellarda malakasini oshirib kelgan xususiy amaliyot shifokorlari bilan bog'liq. Hududda xizmat ko'rsatish sohalari, obyektlari aholi punktlarining katta- kichikligiga qarab shajarasimon yoki asalari uyasi shaklida joylashadi. Ushbu hol bevosita aholining xizmat turlariga bo'lgan ko'lamiga qarab miqdor va sifat jihatdan turlanadi. Xususan, ko'pgina xizmat turlari yirik shaharda, ayrimlari pog'onaning keyingi tizimida turgan kichikroq shaharda, ayrimlari aholi punktlarining katta-kichikligidan qat'iy nazar barchasida mavjud bo'ladi.

Viloyatda aholining katta qismi qishloq joylarda istiqomat qiladi. Shu bois qishloq joylarda tibbiy infratuzilmani takomillashtirish borasida katta ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, so'nggi ikki-uch yil oralig'ida barpo etilgan muassasalar hisobiga ahvol biroz yaxshilandi. Ammo, shunga qaramay, viloyatda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish tarkibida nomuvofiqliklar saqlanib qolmoqda. Ilovadagi jadvalda qishloq tumanlarda aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish shahobchalarining negizi QVP larning joylashuvi, hududning ular bilan ta'minlanganlik koeffitsienti ko'rsatkichlari

keltirilgan. Ko'rinib turibdiki, viloyat tumanlarining QVP lar bilan ta'minlanganlik darajasidagi farq ikki martabadan kattadir. To'g'ri, aksar tumanlarda ambulatoriya poliklinikalari mavjud ammo, ularning joylashuvi ham notekis va aksariyati tuman markazlarida o'rnashgan. Ayni vaqtda ularning ko'pchiligi tor ixtisoslikka ega. Fan va texnika rivojlanib borayotgan hozirgi davrda ijtimoiy yo'nalishdagi tadqiqotlarning ko'lami ortib bormoqda. Shu jumladan, ijtimoiy ekologik izlanishlar miqyosi ham jadal rivojlanmoqda. Bu borada ayniqsa aholi salomatligi bilan bog'liq muammolarni tadqiq qilish o'ta dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, aholi salomatligi o'ta murakkab va serqirra tushuncha bo'lib, Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti ustaviga ko'ra, aholi (inson) salomatligi uning jismoniy, ruhiy va ijtimoiy (sotsial) holati bilan belgilanadi. Mazkur tadqiqot ishida aholi salomatligining faqat ijtimoiy tomoni, ya'ni sog'ligi, kasallanish masalalari ko'rib chiqilgan.

Aholi salomatligi ijtimoiy sohaning rivojlanishi va tashkil etilishi bilan ham bog'liq. Ijtimoiy muhitning tabiiy borliqqa ta'siri ortib borayotgan hozirgi davrda aholi salomatligiga ta'sir etuvchi ekologik omillar (yoki geoekologik omillar) iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlar bilan birgalikda, kompleks ta'sir etuvchi kuchga aylanib bormoqda. Hududning sanoatlashuvi, urbanizatsiya darajasi, transport to'rlarining zichligi, ishlab chiqarishning mujassamlashuvi va texnologik qurollanish holati, aholi joylanishi, antropogen va texnogen bosim makonning nozogeografik turlanishiga, umuman olganda, ijtimoiy omil yoki muhit tabiiy-ekologik sharoit bilan birgalikda muhim ta'sir etuvchi kuchga aylangan. Mamlakatimizning joylashgan geografik o'rni, relyefi, iqlimiy xususiyatlari uning tabiiy sharoitini shakllantiradi. Mazkur tabiiy geografik sharoitlar, xususan *nozoiqlimiy omillar* (tuproq, suv, havo) yig'indisi esa bu yerda yashovchi kishilar salomatligiga ta'sir ko'rsatadi.

Respublikamiz iqlimidagi o'ziga xos jihatlardan biri bu fasllar almashinuvidagi holatlardir. Har bir fasl o'z tabiiy xususiyatlari jihatidan muayyan kasalliklarning avj olishi, ayrimlarining kamayishi bilan farqlanadi. Jumladan, qish faslida havo harorati keskin pasayib ketishi oqibatida yuqumli kasalliklar birmuncha kamayadi, aksincha, kishilarda haroratdagi keskin o'zgarishlar oqibatida shamollash holatlari ortadi. Qishning iliq kelishi tufayli aholi orasida shu fasl bilan bog'liq kasalliklar (shamollashlar) kamaysada, biroq bahor kelishi bilan yuqumli kasalliklar salmog'i keskin ortadi. Qish faslida respublikamiz aholisi orasida nafas olish a'zolarining shamollashi bilan bog'liq yuqumli kasalliklar, poliartrit, havo-tomchi yuqumli kasalliklar (gripp, bolalar yuqumli kasalliklari) yilning boshqa davrlariga nisbatan birmuncha ko'p uchraydi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, havodagi kislorod miqdori, havo bosimi, harorat va namlikning o'zgarishi gipertoniya (qon bosimining ko'tarilishi) kasalligi bor bemorlarda miya va yurak faoliyati bilan bog'liq turli asoratlarni vujudga keltiradi.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, qishda mintaqalarda ob-havoning keskin o'zgarib turishi tufayli aholi orasida xastaliklar salmog'i ortadi, xususan, barometrik bosimning kunlik o'rtacha miqdori sezilarli ravishda o'zgarib turadi. Insult bilan og'rgan

bemorlarning soni aynan shu bosim pasayganda ko'payishi qayd qilingan. Atmosferadagi kislorod miqdori asosan havo bosimi, harorat va namlikka bog'liq. Kislorod miqdorining oshishi yilning sovuq davrida sodir bo'ladi. Bu hol gipertoniya xastaliklari va miya insultlarining ko'payishiga ta'sir ko'rsatadi. Bahor faslida o'rtacha sutkalik harorat 5°C dan yuqori bo'ladi. Bu fasl respublikamizda sernam hisoblanib, uning tekislik qismida yillik yog'inning 40-43 foizi (%), tog' oldi hududlarida esa 40-50 foizi shu faslga to'g'ri keladi. Bahorda kunlarning birdan isib ketishi mamlakatimizda epidemiologik jihatdan zaruriy chora-tadbirlarni talab etadi. Chunki, bu holat ko'pgina yuqumli-parazitar xastaliklarning rivojlanishiga imkon tug'diradi. Bu davrda mamlakatimizning ayniqsa tog' va tog' oldi tumanlarida, shuningdek, ko'proq chorvachilikka ixtisoslashgan mintaqalarida quturish, brutsellyoz, qizamiq singari yuqumli kasalliklar keng uchraydi. So'nggi yillarda, respublikamizning ayrim mintaqalarida, xususan Toshkent, Farg'ona, Jizzax shaharlarida qizamiq kasalligining ham biroz avj olib borayotganligi sanitariya-epidemiologiya markazlari oldida qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu kasalliklarning barchasi uchun ko'proq bahor fasli uyg'onish davri hisoblanadi.

Ba'zi yillari hududlarda yoz faslida harorat nihoyatda ko'tarilib, hatto ayrim hududlarda 48°C ga ham yetadi. Bu hol respublika mintaqalari aholisi orasida qon aylanish tizimi bilan bog'liq xastaliklarning avj olishiga sabab bo'ladi. Atmosferada kislorod miqdorining kamayishi oqibatida kishilarning kayfiyati, asab tizimi va ichki a'zolarining faoliyati o'zgaradi, ishtahasi pasayadi, modda almashinuvi bilan bog'liq jarayonlar buziladi va ichak yuqumli xastaliklarga chalinish holatlari kuchayadi. O'zbekiston Respublikasi hududi bioiqlim resurslariga juda boy. Ular mamlakat hududida iqlim bilan davolovchi ko'plab dam olish inshootlari faoliyatini shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur hol hududda o'pka, suyak silining ba'zi turlari, astma, bronxit, yurak, qon-tomir kasalliklari mavjud bo'lgan kishilar salomatligi uchun juda foydali va bu haqda dissertatsiyada batafsil ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Tog'-kon sanoat landshaftlarining shakllanish jarayoni, rivojlanishi bunday hududlarda aholi salomatligiga jiddiy putur yetkazadi. Ayniqsa, ochiq usulda qaziladigan konlar atrofida istiqomat qiluvchi kishilar organizmida salbiy holatlar kuzatiladi va buning oqibatida qator kasallik guruhlari, jumladan, xavfli o'sma, nafas olish tizimi bilan bog'liq ayrim kasalliklar avj oladi.

Aholi salomatligiga *ijtimoiy-iqtisodiy omillar* ham katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday omillarga aholi va aholi punktlari, joyning demografik sig'imi, sanoat va qishloq xo'jaligining hududiy tashkil etilishi, ishlab chiqarishning mujassamlashuvi va ixtisoslashuvi, urbanizatsiya, transport hamda aloqa vositalarni kiritish mumkin. Hududlar iqtisodiyotining ixtisoslashgan tarmoqlari xarakteriga ko'ra kasalliklar ham o'zaro farqlanadi. Chunonchi, chorvachilik ko'proq rivojlangan Arnasoy, Zomin, Dashtobod singari tumanlarning ko'pgina hududlarida aholining burselloz, exxinokok kasalliklari bilan kasallanish ko'rsatkichlari birmuncha yuqori. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Jizzax viloyatining Mirzacho'l, Forish, Zomin, Dashtobod

tumanlarida aholi orasida brutsellyoz kasalligi sezilarli tarzda ko'p uchraydi. Buning asosiy sababi avvalo mazkur hududlarda chorvachilikning keng yo'lga qo'yilganligi bilan birga, ushbu mintaqalar tabiiy sharoitining aynan mana shu kasallik tug'diruvchi mikroorganizmlarning rivojlanishi uchun nihoyatda qulayligidir.

Sanoat majmualari rivojlangan, urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlarda esa ko'proq ijtimoiy kasalliklar salmog'i yuqori bo'ladi. Bunday kasalliklar, ayniqsa asab, xavfli o'sma, nafas olish, tug'ma nuqsonlar va boshqa xildagi kasallik guruhlari ko'p uchraydi. Masalan, sanoatlashgan shaharlarda (Baxmal, Jizzax shahri, Zomin va b.) va ularning bevosita ta'sir doirasida aholi orasida xavfli o'sma xastaliklari salmog'i boshqa mintaqalarga nisbatan yuqoriroq. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jumladan, Jizzax shahri atrofida aholining yuqoridagi kasallik guruhlari bilan kasallanish salmog'i nisbatan yuqori. Shuningdek, shahar atrofida qon va qon hosil qiluvchi a'zolar bilan og'riganlar soni ham ko'proq. Bunday holatlarni ayniqsa viloyatimizning ba'zi sanoat markazlari atrofida, qon va qon hosil qiluvchi a'zolar bilan og'riganlar soni ham ko'proq kuzatiladi. Aholi va transport to'rlarining zichligi yuqori bo'lgan yirik shaharlarda esa asosan yurak, qon-tomir tizimi, asab va ruhiy buzilishlar bilan bog'liq kasalliklar ko'p uchraydi. Inson salomatligini belgilovchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar tizimida aholining ovqatlanish me'yori bilan bog'liq masala ham muhim mazmunga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Komilova N.K., Muxamedova N.J., Karshibayeva L., Egamqulov H.E., Nozoekologik vaziyat va aholi kasallanishining hududiy tahlili. Monografiya. – Guliston.: Nazokathon ziyo print, 2023 y. – 256 b.
2. G'o'dalov M.R. Jizzax viloyati tabiati va uni muhofaza qilish. – Toshkent. "Fan va texnologiya", 2014 y.
3. Komilova N.K., Ahmadqulov S.R., GEOGRAPHICAL ASPECTS OF USE OF RECREATION RESOURCES OF JIZZAK REGION. Ilmiy maqola. 2022 y. 9 b.